Annotatsiya. Kichik sanoat zonalari (KSZ) negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Kichik sanoat zonalarining infratuzilmaviy imkoniyatlari, moliyaviy va soliq imtiyozlaridan foydalanish, xomashyo bazasini samarali o'zlashtirish hamda logistika zanjirlarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasidagi mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish, kichik biznes subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik sanoat zonalari, qurilish materiallari sanoati, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, infratuzilma, kooperatsiya, investitsiya, logistika, ishlab chiqarish samaradorligi.

Аннотация. Исследованы теоретические и практические аспекты развития субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства, осуществляющих производство строительных материалов на базе малых промышленных зон (МПЗ). Проанализированы инфраструктурные возможности малых промышленных зон, использование финансовых и налоговых льгот, эффективное освоение сырьевой базы, а также формирование логистических цепочек. Выявлены существующие проблемы в сфере производства строительных материалов и разработаны научно обоснованные предложения и практические рекомендации, направленные на их устранение, повышение эффективности деятельности субъектов малого бизнеса и расширение производственного потенциала.

Ключевые слова: малые промышленные зоны, промышленность строительных материалов, малый бизнес, частное предпринимательство, инфраструктура, кооперация, инвестиции, логистика, эффективность производства.

Abstract. The theoretical and practical aspects of developing small businesses and private enterprises engaged in the production of construction materials within small industrial zones (SIZs) are examined. The infrastructural capacity of small industrial zones, the use of financial and tax incentives, the efficient utilization of the raw material base, and the formation of logistics chains are analyzed. Existing challenges in the construction materials industry are identified, and scientifically grounded proposals and practical recommendations are developed to address these challenges, improve the efficiency of small business entities, and expand their production capacity.

Keywords: small industrial zones, construction materials industry, small business, private entrepreneurship, infrastructure, cooperation, investment, logistics, production efficiency.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar, bozor mexanizmlarini jadal joriy etish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlari sanoat tarmoqlarining barqaror o'sishini ta'minlashni talab etmoqda. Xususan, mamlakatimizda shaharsozlik ko'lamining kengayishi, zamonaviy turar joy massivlari, yirik infratuzilma va ijtimoiy soha obyektlarining barpo etilishi qurilish materiallari sanoatiga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi. Ushbu strategik ahamiyatga ega tarmoqning uzluksiz va samarali faoliyat yuritishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o'rni beqiyosdir.



Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, qurilish materiallari sanoati ko'p jihatdan hududiy xomashyo bazasiga tayanishi hamda logistika xarajatlarning yuqoriligi sababli markazlashmagan, ya'ni joylarda kichik va o'rta korxonalar tarmog'i orqali rivojlanishga moyil bo'ladi. Respublika hududlarida kichik biznes subyektlarining egiluvchanligi, iste'mol bozoriga tezda moslasha olishi va mahalliy resurslarni iqtisodiy aylanmaga kiritishdagi faolligi tarmoqning diversifikatsiyasini ta'minlovchi asosiy omilga aylandi. Shu bois, so'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator farmon hamda qarorlar, jumladan, hududlarda zamonaviy kichik sanoat zonalar (KSZ) va maxsus sanoat zonalar tarmoqlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan amaliy chora-tadbirlar tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Kichik sanoat zonalar negizida ishlab chiqarishni tashkil etish tadbirkorlarga tayyor muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, imtiyozli kredit liniyalari va soliq imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatini berib, boshlang'ich xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirmoqda.

Shu bilan birga, tarmoqdagi kichik korxonalar faoliyatini yanada rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish uchun foydalanilmagan imkoniyatlar mavjud. Xususan, zamonaviy energiya tejankor texnologiyalarni kengroq joriy etish, energiya resurslari (tabiiy gaz va elektr energiyasi) narxlarining o'zgarishi sharoitida mahsulot tannarxini maqbullashtirish, moliyaviy resurslar va garov ta'minoti imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarini yanada rivojlantirish kichik biznes salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, u kichik sanoat zonalar negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini chuqur ochib berishni, mavjud imkoniyatlarni aniqlashni va ulardan samarali foydalanish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Tadqiqot doirasida tarmoqning hududiy xususiyatlari, investitsion jozibadorligi va 2030-yilgacha bo'lgan istiqbolli ko'rsatkichlari tahlil qilinib, tarmoqda kichik biznesning rolini yanada oshirish yo'llari asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish hamda hududiy sanoat zonalar salohiyatidan samarali foydalanish masalalari mamlakatimiz va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur adabiyotlar sharhida ushbu yo'nalishdagi nazariy va amaliy yondashuvlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bozor iqtisodiyotidagi o'рни, uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli xorijiy olimlar J. Shumpeter va A. Marshallning klassik asarlarida chuqur ilmiy asoslab berilgan. Xususan, J. Shumpeterning innovatsion nazariyasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotda yangiliklarni joriy etishdagi egiluvchanligi va harakatchanligi alohida ta'kidlangan.

Muntazam ravishda olib borilgan ilmiy izlanishlarda MDH mamlakatlari va respublikamiz iqtisodchi olimlari A. V. Vahobov, T. S. Malikov, Sh. Z. Abdullayev va boshqalar tomonidan kichik biznesni moliyalashtirish, ularga soliq-kredit imtiyozlarini berish hamda hududiy xomashyo bazasidan foydalanish mexanizmlari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Olimlarning fikricha, kichik biznes subyektlari hududiy iqtisodiyotdagi nomutanosibliklarni yumshatish va aholi bandlelini ta'minlashda asosiy bo'g'in hisoblanadi.

Qurilish materiallari sanoatining o'ziga xos xususiyatlari, xomashyoning og'irligi va transport xarajatlarning yuqoriligi jihatidan tahlil qilish masalalari iqtisodchi olimlar R. A. Xolbekov, I. Abduraimov va M. Haqnazarovlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Mualliflar o'z tadqiqotlarida qurilish materiallari sanoati hududiy xomashyo konlariga (qum, shag'al, ohak, gil, bazalt va boshqalar) yaqin joylashgan kichik va o'rta korxonalar tarmog'i orqali jadal rivojlanishini ta'kidlashgan. Shuningdek, ular mahalliy iste'mol bozoriga yaqinlashish orqali logistika xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berishgan.

So'nggi yillarda respublikamizda kichik sanoat zonalar va texnoparklar negizida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari ko'plab ilmiy maqolalar va monografiyalarning bosh mavzusiga aylangan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kichik sanoat zonalar tadbirkorlar uchun "tayyor biznes" muhitini yaratib beradi. Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, imtiyozli kredit liniyalari va soliq imtiyozlari bilan ta'minlangan KSZ subyektlari ishlab chiqarishni qisqa fursatlarda boshlab, mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili kichik sanoat zonalar doirasida energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish, yirik sanoat klasterlari bilan kooperatsiya zanjirlarini yanada mustahkamlash hamda raqamli logistika platformalaridan foydalanish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot ishida, ayniqsa, kichik sanoat zonalar



negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarining faoliyatini yanada takomillashtirish, mavjud infratuzilma salohiyatidan samarali foydalanish va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kichik sanoat zonalar (KSZ) negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish jarayonini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish va tahlil qilish uchun zamonaviy ilmiy yondashuvlar va tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi ilmiy bilishning dialektik usuli, tizimli va qiyosiy tahlil, mantiqiy umimlashtirish, statistik-iqtisodiy tahlil hamda prognozlashtirish usullariga tayanadi.

Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan asosiy usullar va yondashuvlar quyidagilardan iborat:

Tizimli yondashuv orqali qurilish materiallari sanoati va kichik biznes subyektlarining o'zaro bog'liqligi, hududiy xomashyo bazasi hamda kichik sanoat zonalarining infratuzilma imkoniyatlari yagona yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida esa respublika hududlarida kichik sanoat zonalar faoliyatining samaradorligi, tarmoqdagi o'sish sur'atlari hamda yillar kesimidagi o'zgarishlar solishtirilib, hududiy tafovutlar va ilg'or tajribalar aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "O'zsanoatqurilishmateriallari" assotsiatsiyasining rasmiy yillik hisobotlari, hududiy hokimliklarning investitsiya va tahliliy ma'lumotlari statistik-iqtisodiy usullar yordamida qayta ishlandi. Ma'lumotlarni guruhlash usuli orqali qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmlari, investitsiyalar dinamikasi, kichik biznes subyektlarining tarmoqdagi ulushi hamda hududlar bo'yicha ixtisoslashuv yo'nalishlari jadvallar va matritsalar shaklida tizimlashtirildi.

Tarmoqdagi mavjud imkoniyatlar, rivojlanish istiqbollari va ularni samarali amalga oshirish mexanizmlarini aniqlashda tahliliy matritsalar (SWOT va muammoli-imkoniyatli matritsalar) tuzildi. Shuningdek, tarmoq mutaxassislari, tadbirkorlar va ekspertlarning fikrlari asosida kichik sanoat zonalar infratuzilmasi, moliyaviy-soliq imtiyozlari hamda kooperatsiya aloqalarining samaradorligi baholandi.

O'tgan yillardagi (2022–2025-yillar) amaliy ko'rsatkichlar asosida 2026–2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari (qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining o'sishi, kichik biznes tomonidan yaratiladigan mahsulotlar hajmi, investitsiyalar oqimi va yangi tashkil etiladigan korxonalar soni) ekstrapolyatsiya va ekspert hisob-kitoblari usullari yordamida ishlab chiqildi.

Qo'llanilgan ushbu ilmiy metodlar majmui tadqiqot natijalarining haqqoniyligini, xulosalarning asoslanganligini hamda amaliy takliflarning to'g'riligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatining bugungi kundagi holati, kichik sanoat zonalar negizida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ishtiroki hamda ularning iqtisodiy samaradorligi yuzasidan olib borilgan statistik va tahliliy ma'lumotlar asosida quyidagi natijalar aniqlandi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda shaharsozlik va bunyodkorlik ishlarining jadal sur'atlarda olib borilishi qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 2022–2025-yillarda respublikada bajarilgan jami qurilish ishlari hajmi keskin oshib, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati har yili barqaror ravishda 8–11 foiz atrofida ta'minlandi. Tarmoqda kichik biznes subyektlarining ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Garchi yirik sanoat korxonalari va xorijiy investitsiya loyihalarining kirib kelishi hisobiga kichik biznesning umumiy tarmoqdagi ulushi foiz nisbatida biroz, ya'ni 74,1 foizdan 72,0 foizgacha o'zgargan bo'lsa-da, ularning mutlaq qiymatdagi ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga kengayib bormoqda. Bu esa kichik biznesning hududiy ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta'minlashdagi asosiy bo'g'in ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot doirasida kichik sanoat zonalar negizida ish boshlagan kichik biznes subyektlari faoliyati chuqur tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur zonalar tadbirkorlar uchun boshlang'ich xarajatlarning qisqarishi, tayyor muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlangan yer uchastkalari va binolarning ajratilishi hisobiga infratuzilmaga ketadigan xarajatlarni 30–40 foizgacha tejash imkonini bermokda. Shuningdek, moliyaviy va soliq imtiyozlari, imtiyozli kredit liniyalari hamda maxsus soliq rejimlari aylanma mablag'lardan samarali foydalanishga, xorijiy uskunalar va lizing xizmatlaridan keng foydalanishga zamin yaratmoqda. Hududiy konlarga yaqin joylashganligi esa tayyor mahsulotni tashishda transport xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kichik sanoat zonalarining yaratilishi bilan bir qatorda, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish uchun muayyan imkoniyatlar mavjud. Xususan,



sement, g'isht, ohak va gazobeton ishlab chiqarish jarayoni yuqori energiya talab qilgani sababli, tabiiy gaz va elektr energiyasi tariflarining o'zgarishi sharoitida mahsulot tannaxrini maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar tomonidan yangi texnologiyalarni xarid qilish uchun ajratiladigan kreditlar bo'yicha garov ta'minoti imkoniyatlarini kengaytirish ayrim kichik korxonalarning modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. Yirik sanoat klasterlari va kichik sexlar o'rtasidagi subpudrat zanjirlarini yanada rivojlantirish esa mahsulot realizatsiyasi samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ekstrapolyatsiya va ekspert tahlillari asosida ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, qarayotgan davrda tarmoqda barqaror o'sish saqlanib qoladi. Jami qurilish ishlari hajmi 2030-yilga borib 645,0 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi 93,4 trillion so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Tarmoqqa yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi 2,05 milliard AQSh dollariga yetib, yangi tashkil etiladigan kichik korxonalar va sexlar soni 2 550 tadan oshishi ta'minlanadi (1-jadval)

1-jadval.
Kichik sanoat zonalari negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi
kichik biznes subyektlarini rivojlantirish matritsasi¹

Yo'nalishlar	Asosiy masalalar	Amaliy yechimlar va mexanizmlar	Kutilayotgan samaradorlik
Energiya samaradorligi	Yuqori energiya sarfi va tariflarning o'zgaruvchanligi	Quyosh panellari va muqobil energiyaga imtiyozli kreditlar berish	Tannaxrini 12–15 foizga pasaytirish
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Bank kreditlari uchun yuqori garov talablari	Kafillik va lizing xizmatlarini kengaytirish	Investitsiyalarni 25–30 foizga oshirish
Sanoat kooperatsiyasi	Yirik va kichik korxonalar o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish zarurati	Klaster tamoyili va subpudrat shartnomalarini joriy etish	Logistikani yaxshilash va xarajatlarni kamaytirish
Raqamli logistika	Xomashyo va bozor o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish zarurati	Yagona elektron B2B platformasini ishga tushirish	Vaqt va transport xarajatlarini 20 foizga tejash

Ushbu tahliliy matritsa kichik sanoat zonalari (KSZ) negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishlarni takomillashtirish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini yoritadi. Matritsadagi asosiy yo'nalishlarning tahlili quyidagilardan iborat:

Sement, g'isht, ohak va gazobeton kabi qurilish materiallarini ishlab chiqarish jarayoni yuqori darajada elektr energiyasi va tabiiy gaz sarfini talab qiladi. Tarmoqdagi energiya tariflarining o'zgarishi sharoitida mahsulot tannaxrini maqbullashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda korxonalarga muqobil energiya manbalarini, jumladan, quyosh panellarini o'rnatishda imtiyozli "yashil" kreditlar va subsidiyalar taqdim etish mahsulot tannaxrini 12–15 foizgacha pasaytirish, shuningdek, energiya mustaqilligini ta'minlash imkonini beradi.

Kichik biznes subyektlarini modernizatsiya qilish jarayonida muhim yo'nalishlardan biri tijorat banklari tomonidan talab etiladigan garov ta'minoti imkoniyatlarini kengaytirish hisoblanadi. Bu yangi texnologiyalar va uskunalar xarid qilish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi. "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" orqali kafillik va lizing xizmatlarini kengaytirish tadbirkorlarning moliyaviy imkoniyatlarini oshirib, tarmoqqa yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini 25–30 foizga ko'paytirishga zamin yaratadi.

Yirik qurilish materiallari kombinatlari va kichik sexlar o'rtasidagi subpudrat aloqalarini yanada rivojlantirish mahsulot realizatsiyasi samaradorligini oshirish imkonini beradi. KSZlarni yirik korxonalar atrofida klaster tamoyili asosida birlashtirish hamda uzoq muddatli shartnomalar tuzishni yo'lga qo'yish logistika va transport xarajatlarini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Hududiy xomashyo konlari (qum, shag'al, gil) va tayyor mahsulot bozori o'rtasidagi axborot almashinuvini takomillashtirish vaqt va mablag'lardan yanada samarali foydalanish imkonini beradi. Yagona elektron B2B platformasini ishga tushirish ta'minot zanjirining shaffofligini oshirib, vaqt va transport xarajatlarini 20 foizgacha tejash imkonini beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasining kichik sanoat zonalari rivojlantirishga oid amaliy ma'lumotlari, hududiy statistika ko'rsatkichlari hamda muallif tahlillari asosida tuzildi.



2-jadval.
O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati va kichik biznes
subyektlarining yillar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari² (2022–2026-yillar)

Yillar	Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmi (trln so'm)	Qurilish materiallari ishlab chiqarish o'sish sur'ati (%)	Kichik biznes subyektlarining tarmoqdagi ulushi / hajmi	Tarmoqqa yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi (mlrd AQSh dollari)	KSZlarda tashkil etilgan yangi kichik korxonalar (dona)
2022	130,7	108,2	74,1%	0,80	1 100
2023	222,9	111,5	73,5%	0,95	1 250
2024	259,6	112,4	72,8%	1,12	1 320
2025	313,8	113,5	72,0%	1,17	1 380
2026	365,0	109,2	45,2 trln so'm	1,25	1 400

Ushbu statistik ma'lumotlar 2022–2026-yillarda O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati va kichik sanoat zonalar (KSZ) negizida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlarining rivojlanish dinamikasini yaqqol ko'rsatadi. Jadvaldagi ko'rsatkichlarning tahlili quyidagilardan iborat. Mamlakatimizda shaharsozlik va bunyodkorlik ishlarining ko'lam yildan-yilga kengayib borayotgani jami bajarilgan qurilish ishlari hajmida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2022-yildagi 130,7 trillion so'mlik ko'rsatkich 2026-yilga kelib 365,0 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Bu, o'z navbatida, qurilish materiallariga bo'lgan ichki talabning sezilarli darajada oshganini bildiradi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yillar davomida bu ko'rsatkich barqaror ravishda 108–113 foiz atrofida saqlanib qolgani kuzatiladi. Bu tarmoqda yuqori iqtisodiy faollik va uzluksiz o'sish tendensiyasi mavjudligini anglatadi.

Tarmoqda yirik sanoat korxonalari va xorijiy investitsiya loyihalarining kengayishi hisobiga kichik biznesning foizdagi ulushi biroz o'zgargan, ya'ni 74,1 foizdan 72,0 foizgacha bo'lgan bo'lsa-da, 2026-yilga kelib mutlaq qiymatdagi ishlab chiqarish hajmi 45,2 trillion so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Bu kichik biznesning hududiy bozorlarni sifatli qurilish materiallari bilan ta'minlashdagi salmoqli o'rnini tasdiqlaydi. Kichik sanoat zonalarida (KSZ) tadbirkorlik uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar, infratuzilma va soliq imtiyozlari tarmoqqa yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmini oshirdi: 2022-yildagi 0,80 milliard dollardan 2026-yilda 1,25 milliard dollargacha. Shuningdek, KSZlarda tashkil etilgan yangi kichik korxonalar soni 1 100 tadan 1 400 taga ko'payib, minglab yangi ish o'rinlari yaratilishiga xizmat qildi.

3-jadval.
Kichik sanoat zonalar (KSZ) negizida qurilish materiallari
ishlab chiqaruvchi subyektlarni rivojlantirishning imkoniyatlari va amaliy takliflari³

Imkoniyatlar (mavjud salohiyat va afzalliklar)	Amaliy takliflar va mexanizmlar
Infratuzilma va boshlang'ich xarajatlar: tayyor muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlangan yer va binolarning ajratilishi tadbirkorlarning xarajatlarini 30–40 foizga qisqartiradi.	KSZlardagi bo'sh turgan yer uchastkalari va bino-inshootlarni tadbirkorlarga uzoq muddatli lizing hamda shartli ravishda imtiyozli xususiyashtirish sharti bilan berish amaliyotini kengaytirish.
Hududiy xomashyo bazasi: respublika hududlarida qurilish materiallari uchun zarur bo'lgan xomashyo konlarining (qum, shag'al, gil, ohaktosh) yetarliligi va yaqinligi.	Konlar yaqinida ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish hamda xomashyo qazib chiqarish litsenziyalarini soddalashtirilgan tartibda taqdim etish.
Soliq va moliyaviy imtiyozlar: imtiyozli kredit liniyalari va maxsus soliq rejimlari aylanma mablag'lardan samarali foydalanish imkonini beradi.	Zamonaviy energiya tejamon uskunalar va lizing xizmatlari uchun "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" hisobidan qo'shimcha subsidiyalar va kafilliklar ajratish.
Sanoat kooperatsiyasi: yirik qurilish materiallari kombinatlari bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish orqali ichki bozorni sifatli mahsulot bilan to'ldirish salohiyati.	Yirik qurilish klasterlari va kichik sexlar o'rtasida subpudrat shartnomalarini tuzishni rag'batlantiruvchi elektron kooperatsiya birjasi mexanizmini yo'lga qo'yish.

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "O'z sanoat qurilish materiallari" assotsiatsiyasi ma'lumotlari hamda hududiy kichik sanoat zonalar tahlillari asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

3 Tarmoqdagi amaliy holat, mavjud imkoniyatlar tahlili hamda muallif tavsiyalari asosida shakllantirildi.



Ushbu tahliliy jadval kichik sanoat zonalarini (KSZ) negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarini rivojlantirishdagi mavjud imkoniyatlar va ularni to'laqonli ro'yobga chiqarishga qaratilgan amaliy takliflar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Jadvaldagi yo'nalishlarning tahlili quyidagilardan iborat:

KSZlarda tayyor muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining (elektr, gaz, suv, yo'l) mavjudligi tadbirkorlarning infratuzilmaga ketadigan xarajatlarini 30–40 foizgacha tejash imkonini bermoqda. Taklif etilayotgan mexanizmga ko'ra, bo'sh turgan yer uchastkalari va binolarni uzoq muddatli lizing hamda imtiyozli xususlashtirish sharti bilan berish tadbirkorlarning sarmoyaviy faolligini yanada oshiradi.

Respublika hududlarida qurilish materiallari uchun zarur bo'lgan xomashyo konlarining (qum, shag'al, gil, ohaktosh) yetarli ekanligi ulardan oqilona foydalanishni talab qiladi. Konlar yaqinida ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini tashkil etish va litsenziyalash tartibini soddalashtirish transport xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Imtiyozli kredit liniyalari va maxsus soliq rejimlari aylanma mablag'lardan samarali foydalanish imkoniyatini oshiradi. Zamonaviy energiya tejankor uskunalar uchun "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" orqali qo'shimcha subsidiyalar va kafilliklar ajratish korxonalarining texnik jihatdan yangilanishini tezlashtiradi.

Yirik qurilish materiallari kombinatlari va kichik sexlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirishga xizmat qiladi. Elektron kooperatsiya birjasi mexanizmini yo'lga qo'yish subpudrat shartnomalarini tuzishni soddalashtirib, mahsulot realizatsiyasi samaradorligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va kichik sanoat zonalarini (KSZ) negizida kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash yuzasidan olib borilgan ilmiy-tahliliy tadqiqotlar quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

- Qurilish materiallari sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan va hududiy infratuzilmani shakllantiruvchi strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Shaharsozlik ko'lamining kengayishi va investitsion faollikning oshishi tarmoqda ishlab chiqarish hajmlarining barqaror ravishda yiliga 8–11 foiz atrofida o'sishini ta'minlamoqda.

- Kichik sanoat zonalarini (KSZ) tadbirkorlar uchun tayyor muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini taqdim etish, boshlang'ich kapital xarajatlarini 30–40 foizgacha qisqartirish hamda soliq-bojxona imtiyozlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish orqali hududlarda kichik biznesni jadal rivojlantirishning asosiy institutsional mexanizmiga aylandi.

- Shu bilan birga, tarmoqda energiya resurslari narxlarining o'zgarishi sharoitida mahsulot tannarxini maqbullashtirish, moliyaviy resurslar va lizing xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, yirik sanoat klasterlari bilan kooperatsiya aloqalarini yanada rivojlantirish kichik korxonalarining mavjud salohiyatidan to'laqonli foydalanishga xizmat qiladi.

- Prognoz ko'rsatkichlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali 2030-yilga borib jami qurilish ishlari hajmini 645,0 trillion so'mga, kichik biznes tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmini 93,4 trillion so'mga yetkazish hamda tarmoqqa yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmini 2,05 milliard AQSh dollaridan oshirish imkoniyati mavjud.

Kichik sanoat zonalarini negizida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- Energiya tejankor va "yashil" texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish: sement, g'isht, ohak va gazobeton ishlab chiqaruvchi kichik korxonalarga energiya sarfini kamaytiruvchi tejankor uskunalar va muqobil energiya manbalarini (quyosh panellari) o'rnatish uchun tijorat banklari orqali imtiyozli, uzoq muddatli "yashil" kredit liniyalari va davlat subsidiyalarini taqdim etish mexanizmini kengaytirish.

- Moliyaviy qo'llab-quvvatlash va garov ta'minoti imkoniyatlarini kengaytirish: kichik sanoat zonalarida faoliyat yurituvchi istiqbolli tadbirkorlarga yangi texnologiyalarni xarid qilish uchun ajratiladigan kreditlar bo'yicha "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" hisobidan kafillik va kafil-garov xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini oshirish.

- Kooperatsiya va sanoat zanjirlarini mustahkamlash: yirik qurilish materiallari kombinatlari (sement zavodlari, yirik oyna va metall konstruksiya korxonalari) atrofida kichik sanoat zonalarini klaster tamoyili asosida integratsiya qilish, kichik sexlar tomonidan tayyorlanadigan butlovchi va pardozlash materiallarini yirik korxonalar orqali realizatsiya qilish bo'yicha subpudrat shartnomalarini rag'batlantirish.

- Raqamli logistika va xomashyo platformasini yaratish: hududiy xomashyo konlari (qum, shag'al, gil, bazalt) va kichik sanoat zonalarini o'rtasidagi masofani hamda transport xarajatlarini optimallashtirish maqsadida



xomashyo ta'minoti va tayyor mahsulot realizatsiyasini qamrab oluvchi yagona elektron B2B raqamli platformasini joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi 69-II-son Qonuni: <https://www.lex.uz/ru/docs/-31846>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik sanoat zonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirishga oid farmon va qarorlari.
3. Abdukarimov I., Haqnazarov M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Vahobov A. V., Malikov T. S. Moliya va tadbirkorlik. – Toshkent: Moliya, 2021.
5. Xolbekov R. A. Qurilish materiallari sanoatida hududiy ishlab chiqarish majmualarini rivojlantirish yo'llari: iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
